

Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrası o‘qituvchisi

TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MANZARA KOMPOZITSIYASINING O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqola tasviriy san’at o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasining muhim o‘rnini tahlil qiladi. O‘zbekistonning ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xorijiy tajriba va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonida tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun manzara kompozitsiyaning nazariy asoslari, badiiy ifoda vositalari va uning pedagogik faoliyatdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ijod, o‘qituvchi, kompozitsiya, rassom, manzara, rang, pedagog, fikr, tajriba, nazariy, tasviriy

O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar juda muhim. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash borasida olib borilayotgan ishlar ham shular jumlasidandir. Hozirda xorijiy tajribani o‘rganish va o‘zlashtirish orqali yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirishga yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, o‘quv jarayonini yanada samarali qilish va o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun zarurdir. Shuningdek, tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliyot va nazariy bilimlarni integratsiyalash muhimdir, bu uyg‘unlashuv asosidagi bilim bir butun mukammal, ishlanayotgan kompozitsiyani esa yanada yuqori pog‘onaga olib chiqadi.

O‘zbekistonning tasviriy san’at ta’limi tizimida xalqaro tajribalarni o‘rganish va joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Buning uchun xalqaro konferensiyalar, seminarlar va treninglar o‘tkazish, xorijiy olimlar bilan hamkorlik qilish zarur.

Tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish lozim. Bu dasturlar o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va texnologiyalar bilan tanishishlariga yordam beradi. Ularning kasbiy kompetentligini oshirish, o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida yetakchi o‘rinni “aqli maktablar, ziyoli millat” strategik dasturida o‘z aksini topgan mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish paradigmasiga ega bo‘lgan Singapur egallaydi. Ushbu strategiyaning asosiy g‘oyasi “umrbo‘yi ta’lim” g‘oyasi bo‘lib, u bilan mamlakat kelajagi uzviy bog‘liq. Singapurda Finlandiyadagi kabi o‘qituvchilik kasbi ijodkorlik hisoblanib, o‘qituvchi kasbi ijodiy va jamiyatda sharaflari hisoblanadi, shuning uchun, o‘qituvchi kasbiga talabgor nomzodlar eng yaxshi deb tan olinishi uchun yetarlicha uzoq va murakkab tanlov jarayonidan o‘tadilar.¹

Kompozitsiya tasviriy san’atning asosi hisoblanib kompozitsiya qoidalarini tartibga solish va tashkil qilishni orqali ushbu ko‘nikmalarni bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga samarali o‘rgatish uchun

¹ Ibragimov.A.G. Muratov.I.T Xorij tajribalari asosida o‘zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari Science and innovation international scientific journal VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7297822>

kompozitsiyaning nazariy asoslarini chuqur anglash zarur. Bu jarayonda o'qituvchilarning kompozitsiya yaratishdagi rolini, ularning pedagogik yondashuvlarini va tajribalarini hisobga olish muhimdir.

Ushbu maqolada rassom pedagogning takomillashuvi, kompozitsiyaning nazariy asoslari hamda rassom o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish va pedagogik faoliyatlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni aytib o'tish zarur. Bundan tashqari, kompozitsiya nazariyasi asosida o'qituvchilarga amaliy mashg'ulotlar, ijodiy loyihalar orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu jarayon o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishlari, yangi metodlarni sinab ko'rishlari va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishlari uchun muhimdir. Kompozitsiyaning nazariy asoslarini o'rganish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishlariga yordam beradi va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Rassom ustozlar - N.N. Rostovtsev, N.E. Radlov, V.S. Kuzin, E.V. Shoroxov, A.I. Sherbakov va boshqalar tasviriy san'atga oid uslubiy qo'llanmalarida kompozitsiyani o'qitish masalasi bo'yicha ilmiy izlanishlarning zarurligini ta'kidlaganlar.

Bo'lajak o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasini o'rni nihoyatda muhim. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga manzara kompozitsiyasi nazariyasini o'rgatishda, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ular o'z asarlarida kompozitsiya qoidalarini qo'llab, o'z hissiyotlarini va tasavvurlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu jarayon o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. O'quvchilar manzara kompozitsiyasining asosiy elementlarini o'rganish orqali, ularni o'z asarlarida qanday qo'llashni, rang, forma va fakturalar orqali hissiyotlarni qanday ifodalashni o'rganadilar.

Manzara kompozitsiyasi o'qituvchilarga o'quvchilarning ijodiy jarayonini kuzatish va ularni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. O'qituvchilar o'z o'quvchilariga kompozitsiya qoidalarini tushuntirish bilan birga, ularning ijodiy fikrlashlarini rag'batlantirish uchun turli xil metodlarni qo'llashlari kerak. Misol uchun, o'quvchilarga turli manzaralarni ko'rsatish, ularni tahlil qilish va o'z asarlarini yaratishda ilhomlantirish, shuningdek, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar orqali manzara kompozitsiyasini o'rganishga jalb qilish, ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ustaxonalar, ijodiy loyihalar va guruh bo'lib ishlangan ishlar o'quvchilarga o'zaro tajriba almashish imkonini beradi va o'zaro fikr almashish jarayonida yangi g'oyalar paydo bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki rangtasvir asarlaridan nusxa ko'chirish, nafaqat kompozitsion mahoratni rivojlantirishga, balki ranglar va texnikalarni o'rganishga ham yordam beradi. Ushbu jarayon orqali ijodkorlar o'z uslublarini shakllantirganlar

Manzara kompozitsiyalarini ishlashni o'zlashtirish, muvozanatlash, chuqurlik va perspektivani aks ettirish, qarash nuqtasini to'g'ri topish, ritm va kontrast kabi kompozitsion usullardan foydalana bilish orqali muayyan tabiat ko'rinishining mohiyatini aks ettirish imkonini beradi.

Chistyakov kompozitsion ko'rishga katta ahamiyat berdi. Bunga, uning fikricha, tabiatda ko'zni o'rgatish, zarur. Rus san'atida birinchi bo'lib kompozitsiyaga munosabatini o'zgartirgan A.G. Venetsianov. Aslida u kompozitsiyani tabiatni bilishda faol vosita sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi. Misol uchun Manzara kompozitsiyasini qurishning asosiy tamoyili — nisbatlar, muvozanatni to'g'ri topish, shakllar va badiy to'qimalarning mosligi, va ranglarni to'g'ri tanlash kabi jihatlarni hisobga olish zarur. Muvozanatni ko'rsata olish juda muhim, chunki bu tomoshabinlarga kompozitsiyaning dinamikasini va muvozanatini his qilish imkonini beradi. Bunga o'lcham, rang va elementlardan foydalanish orqali erishish mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilarga kompozitsiya jarayonida elementlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishlari kerak. I.E. Repin, o'z shogirdlariga tabiatni nusxalash orqali kompozitsiya yaratishni qat'iyan man qilgan, chunki uning fikricha, kompozitsiyada ortiqcha, bo'ysunmaydigan va ijodiy kontseptsiya bilan bog'liq bo'lmagan narsa bo'lmasligi kerak. Shuni nazarda tutib O'quvchilar turli kompozitsion usullarni sinab ko'rish orqali, o'z asarlarida muvozanatni qanday yaratishni o'rganishlari kerak. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijodiy jarayonida ko'plab tajribalar o'tkazishlari, turli xil ranglar va shakllarni qo'llashlari, shuningdek, manzaralardagi holatlarni aks ettirish uchun o'z qarash nuqtalarini o'rganishlari zarur.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarining ajoyib rassomi V.A. Favorskiy tasviriy jarayonda kompozitsiyaning talab va vazifalarini tahlil qilib hayotdan olingan har qanday chizma makon va vaqt omillarini hisobga olgan holda kompozitsion bo'lishi kerak degan fikrni ilgari surgan. Asosan manzara kompozitsiyasida chuqurlikni ko'rsatish asosiy vazifa sanaladi. Qolaversa, kompozitsiyani ishlashda kontrastlik qonuni fikrni yanada yaqqolroq ko'rsata olish imkonini beradi va asar xarakterini yanada bo'rttiradi. Odatda, biror rangtasvir asari yaratilayotganda, kompozitsiya asari markazi va ayrim elementlar kontrast ishlashga harakat qilinadi, ya'ni kerakli jihatlariga urg'u beriladi.

Asarda issiq va sovuq ranglar, silliq va qo'pol tekstura elementlari, katta hamda kichik shakllarning nisbatlari va boshqa jihatlar kompozitsiyada namoyon bo'ladi. Bu elementlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, asarning dinamikasini va hissiyotini kuchaytiradi. Misol uchun, issiq ranglar (qizil, sariq) o'ziga jalb etuvchi va energiya beruvchi bo'lsa, sovuq ranglar (ko'k, yashil) tinchlantiruvchi va chuqurlik hissini yaratadi. O'quvchilar ushbu ranglarning qanday qilib bir-birini to'ldirishini o'rganishlari kerak, bu esa ularning kompozitsiyalarida yanada kuchli va muvozanatli tasvirlar yaratishga yordam beradi. Shuningdek, silliq va qo'pol tekstura elementlari o'rtasidagi kontrast, asarda his-tuyg'ularni yanada kuchaytirishi mumkin. Masalan, silliq va nozik tekstura tinchlik va sokinlikni ifodalaydi, qo'pol tekstura esa harakat va energiyani ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, katta va kichik shakllarning nisbatlari ham muhim ahamiyatga ega. Katta shakllar ko'zga tashlanadi va diqqatni tortadi, kichik shakllar esa kompozitsiyaning chuqurligini yaratishda yordam beradi. K.F.Yuon rassomlarning ijodiy merosini o'rganishga asoslanib, rassomlarning kompozitsion faoliyatini umumlashtirib, kompozitsiya asoslarini o'rgatish sifatida badiiy pedagogikada qo'llanilishi mumkin bo'lgan kompozitsion muammolarni hal qilishning asosiy usullarini belgilab berdi. Bu, birinchi navbatda, nuqtai nazar, ufq, yaxlitlik, ritm, dinamika va statikani tanlashdir. O'quvchilar bu fikrlarni o'z asarlarida qanday ishlatishni o'rganishlari zarur.

N.N.Volkov kompozitsiya omili sifatida fazo haqida gapirar ekan, yaxlitlik, kontrast, ritm, simmetriya, kompozitsion markaz, harakat, makon va vaqt kabi kompozitsion jihatlar har tomonlama ko'rib chiqiladigan nazariy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Kompozitsiya qiziqarli bo'lishi uchun ritmdan keng foydalaniladi. Ritm bu harakatni anglatadi, deyish mumkin. Kartinada ritmni chiziqlar, yorug' va soya, dog'lar hamda rang dog'lari bilan berish mumkin. Har bir element o'z o'rnida va o'z vaqtida paydo bo'lishi orqali asarga harakat va dinamikani ko'rsatish mumkun.

Ritmni yaratishda, o'quvchilar turli usullarni qo'llashlari mumkun. Ular chiziqlarni bir xil yo'nalishlarda yoki turli yo'nalishlarda joylashtirish orqali harakatni ifodalashlari mumkin. Yorug' va soya, dog'lar orqali esa asarda ko'rinadigan harakatni kuchaytirish mumkin. Rang dog'lari orqali kompozitsiyaning rang palitrasini boyitish va his-tuyg'ularni kuchaytirish mumkin.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'atda ritm kompozitsiya g'oyalarini ifodalashda faol ishtirok etadi. U tasvirni qurishda qatnashibgina qolmasdan, balki unga ma'no va jozibadorlik ham baxsh etadi. Ritm tabiatda jism va xodisalarning ma'lum tartibda, muntazam izchillikda takrorlanishini aks ettiradi.

Tasviriy san'at kompozitsiyasi uchun badiiy ifoda eng muhim vosita hisoblanadi. Ijodkor asar kompozitsiyasining mohiyatini anglab, asar go'zalligini va mohiyatini aks ettiruvchi jarangdor san'at asari yaratishi mumkin. Manzara janrida ijod qilgan rassomlarning asarlariga qaraganda, kartinada manzara ruhiyatni ochib berishga, ma'lum bir hissiyotni, kayfiyatni va g'oyani ochib berish uchun harakat qilinganini sezish mumkin.

Rassomlar manzara kartinalarida tinchlik va osoyishtalik tuyg'usini uyg'otadigan sokin tabiatni aks ettirishadi. Bunday asarlar ko'pincha yumshoq ranglar, silliq chiziqlar va tinch kompozitsiyalar bilan ifodalanadi. Bu, tomoshabinning ruhiyatini tinchlantiradi va sokinlik hissini beradi. Bundan tashqari

kuchli dramatik manzara kompozitsiyalarini ham ko‘rish mumkin. Bunday asarlarda kuchli kontrastlar, jadal chiziqlar va yorqin ranglar ishlatiladi, bu esa tomoshabinda kuchli hissiyotlar va dramatik ta‘sir uyg‘otadi. Rassomlar bu usullar orqali manzaralarning harakatini va energiyasini ifodalaydilar, bu esa asarga dinamik kuch kiritadi. Har bir kompozitsiya o‘ziga xos ma‘noga ega bo‘lib, tomoshabinning tasavvurini va his-tuyg‘ularini o‘ziga jalb etadi.

Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasining nazariy asoslari muhim ahamiyatga ega. Manzara kompozitsiyasi orqali o‘quvchilar san‘atning estetik va hissiy jihatlarini chuqur anglab olishlari mumkin. Nazariy asoslar, badiy ifoda va kompozitsiya elementlari, shuningdek, ritm va ranglar o‘rtasidagi munosabatlar o‘qituvchilarga o‘z darslarida samarali usullarni qo‘llash imkonini beradi. O‘qituvchilar manzara kompozitsiyasini o‘rganish orqali o‘quvchilarga san‘at asarlarini yaratishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishlari va ularning estetik tafakkurini shakllantirishlari mumkin. Shuningdek, manzara kompozitsiyasining nazariy asoslari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning hissiyotni va kayfiyatni ifodalashda ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, kelajakda tasviriy san‘at sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati

1. Baxriyev, I. (2023, December). Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini o‘qitishda ijodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: “Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). Composition and improvement of methodology of description in the professional training of future fine art teachers for pedagogical activity. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(7), 60-62.
3. Baxriyev, I. S. (2021). Rangtasvir asari ishlashda kompozitsiya fanining muhim ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 315-322.
4. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). The role of pedagogical technologies in teaching fine arts lessons. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(7), 63-66.
5. Baxriyev, I. S. (2022). Tasviriy san‘at rivojida kompozitsiyaning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 818-823.
6. Baxriyev, I. S. (2023). San‘at asarlarida kompozitsiya va uning muhim ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, 4(6), 256-262.
7. Bakhriyev, I. (2023). Scientific theoretical basis of teaching young students to describe landscape composition. *European International Journal of Pedagogics*, 3(02), 47-53.
8. Бахриев, И. (2020). Ривоятларнинг санъат асарларидаги тутган урни ва унинг баркамол ёшларни тарбиялашдаги аҳдмияти. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
9. Baxriyev, I. S. (2021). The importance of pedagogical technologies in the teaching of fine arts. *Экономика и социум*, (9 (88)), 28-32.
10. Baxriyev, I. S. (2021). Problem educational technology in teaching fine arts lessons. *Экономика и социум*, (9 (88)), 33-35.
11. Bakhriyev Ilhomjon Saidazimovich. (2024). Formation of students’ creative competence by teaching landscape composition. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(11), 165–169.
12. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
13. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). Muhandislik grafikasida multimediyaning tutgan o‘rni. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.

14. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193.;
15. Abduvoitovich, B. D. (2024). The role of integrative education in student activation. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(11), 151-155.
16. Abduvoitovich, B. D. (2024). Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida badiiy studiyalarni tashkil etishning ahamiyati. *IQRO INDEXING*, 10(2), 177-181.